

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL  
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
<b>Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich</b>	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES .....	20
<b>Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li</b>	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
<b>Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	30
<b>Nosirova Kamola Alimovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....	39
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	44
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
<b>Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
<b>Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi</b>	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	64
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
<b>Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov</b>	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILIYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI .....	92
<b>Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li</b>	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBI OBYEKTI SIFATIDA.....	99
<b>I.Boymurodov</b>	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi</b>	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI .....	110
<b>Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira</b>	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI .....	115
<b>Almuradov Ne'mat Abdullayevich</b>	
SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	123
<b>Kuzieva Nargiza Ramzanovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....	130
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....	136
<b>Komilova Dilafuz Rustam qizi</b>	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	141
<b>Bobojonova Zarnigor Shokirovna</b>	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	149
<b>Axmedov Umidjon</b>	



# EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Axmedov Umidjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning nazariy-konseptual asoslari, institutsional shart-sharoitlari hamda makroiqtisodiy natijalari tadqiq etilgan. Eksport salohiyati milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni taklif etish qobiliyati sifatida talqin qilinib, uning shakllanishida asosiy kapitalga investitsiyalar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, eksport infratuzilmasi, texnologik modernizatsiya va tarmoqlararo diversifikatsiyaning o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Investitsiya resurslarini eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, transport-logistika hamda raqamli xizmatlar sohasiga maqsadli joylashtirish eksport samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 2025-yilda tashqi savdo aylanmasi va asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi tahlil qilinib, eksport salohiyatini oshirish uchun investitsiya siyosatini strategik tarmoqlar, hududlar va moliyalashtirish manbalari kesimida muvofiqlashtirish zarurligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** eksport salohiyati; investitsiya siyosati; asosiy kapital; to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar; eksport diversifikatsiyasi; yuqori qo'shilgan qiymat; eksport infratuzilmasi; investitsiya samaradorligi; raqobatbardoshlik; tashqi savdo; strategik model.

**Аннотация.** Исследованы теоретико-концептуальные основы эффективного использования инвестиций для повышения экспортного потенциала национальной экономики. Экспортный потенциал рассматривается как способность экономики формировать конкурентоспособное предложение товаров и услуг на внешних рынках, а инвестиции — как ключевой фактор технологической модернизации, диверсификации производства и развития экспортной инфраструктуры. Обосновано, что целенаправленное размещение инвестиционных ресурсов в отраслях с высокой добавленной стоимостью, транспортно-логистической инфраструктуре, перерабатывающей промышленности и сфере цифровых услуг способствует укреплению устойчивости экспортного роста. На основе статистических данных по Узбекистану показана необходимость согласования инвестиционной политики с задачами расширения экспорта, увеличения числа экспортёров и повышения доли готовой продукции в структуре внешней торговли.

**Ключевые слова:** экспортный потенциал; инвестиционная политика; основной капитал; прямые иностранные инвестиции; экспортная диверсификация; высокая добавленная стоимость; экспортная инфраструктура; эффективность инвестиций; конкурентоспособность; внешняя торговля; стратегическая модель.

**Abstract.** The theoretical and conceptual foundations of the effective use of investments for enhancing export potential are examined. Export potential is interpreted as the capacity of a national economy to provide competitive goods and services to international markets, while investment is considered a key driver of technological modernization, production diversification, and export infrastructure development. The study demonstrates that the targeted allocation of investment resources to high-value-added industries, processing sectors, transport and logistics infrastructure, and digital services contributes significantly to export efficiency and external competitiveness. Based on recent statistical evidence from Uzbekistan, the need for closer coordination between investment policy, export diversification priorities, financing sources, and regional development strategies is substantiated.

**Keywords:** export potential; investment policy; fixed capital; foreign direct investment; export diversification; high value added; export infrastructure; investment efficiency; competitiveness; foreign trade; strategic model.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi, global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi va texnologiyalarning tez sur'atlarda yangilanib borishi sharoitida mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirish masalasi faqat tashqi savdo hajmini ko'paytirish bilan cheklanmaydi. U milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, tashqi bozor talablariga mos standartlar va sifat tizimlarini joriy etish hamda investitsiya resurslarini samarali taqsimlash bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks jarayondir. Shu bois eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan

foydalanishning konseptual asoslarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, eksport faoliyatini rag'batlantirish va xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish, eksport hajmini izchil oshirish hamda eksportchi korxonalar sonini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqsadlar investitsiya resurslarini tarmoqlar, hududlar va texnologik yo'nalishlar bo'yicha aniq ustuvorliklar asosida boshqarishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning nazariy, institutsional va metodologik asoslarini ochib berish, investitsiya siyosati bilan eksport diversifikatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash hamda O'zbekiston sharoitida eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarni boshqarishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun eksport salohiyatining iqtisodiy mazmuni, investitsiyalar samaradorligini baholash mezonlari, moliyalashtirish manbalari va eksport infratuzilmasi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eksport salohiyati va investitsiya samaradorligi masalalari xalqaro iqtisodiy nazariyada bir nechta yo'nalishlar kesimida o'rganiladi. Klassik va neoklassik yondashuvlarda eksport ustunliklari resurslar nisbati, nisbiy xarajatlar va ixtisoslashuv omillari bilan izohlanadi. Zamonaviy institutsional yondashuvlarda esa eksport raqobatbardoshligi investitsiya muhiti, huquqiy kafolatlar, logistika infratuzilmasi, innovatsion tizim va moliyaviy bozorlar sifati bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Demak, eksport salohiyatini investitsiyalar bilan bog'liq holda tahlil qilishda faqat kapital qo'yilmalar hajmi emas, balki ularning tarkibi, texnologik sifati, tarmoqlararo ta'siri va tashqi bozor talablariga moslashuvchanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

M. Porterning raqobat ustunliklari nazariyasida mamlakat va tarmoq darajasidagi eksport muvaffaqiyati omillar sharoiti, ichki talab xususiyatlari, qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar, firmalar strategiyasi va raqobat muhiti bilan bog'liq tarzda talqin qilinadi<sup>1</sup>. Uning fikricha, mamlakatlarning xalqaro bozorlardagi ustunligi faqat tabiiy resurslar yoki arzon ishchi kuchi hisobiga emas, balki innovatsiyalar, samarali klasterlar, ishlab chiqarish madaniyati, raqobat bosimi va tarmoqlararo hamkorlik orqali shakllanadi. Bu yondashuv investitsiyalarni eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi passiv moliyaviy resurs emas, balki klasterlar, texnologiyalar, malakali kadrlar, logistika tizimlari va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantiruvchi strategik omil sifatida ko'rish imkonini beradi. Shu jihatdan Porter qarashlari eksportni rivojlantirishda investitsiya siyosati, sanoat siyosati va raqobat muhitini o'zaro bog'liq holda baholash zarurligini asoslaydi.

P. Romerning endogen texnologik o'sish nazariyasida bilim, innovatsiya va texnologik yangilanish iqtisodiy o'sishning ichki manbalari sifatida talqin qilinadi<sup>2</sup>. Uning fikricha, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish faqat kapital va mehnat hajmining ortishi bilan emas, balki yangi bilimlar, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, texnologiyalarni joriy etish va inson kapitalining rivojlanishi orqali ta'minlanadi. Ushbu yondashuv tashqi savdo faoliyati uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki eksport salohiyati yuqori bo'lgan iqtisodiyotlar odatda innovatsion mahsulotlar, texnologik jihatdan murakkab ishlab chiqarish va yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar orqali xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallaydi. Romer nazariyasi investitsiyalarni nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, balki texnologik bilimlarni yaratish, korxonalarining innovatsion qobiliyatini oshirish va eksport tarkibini sifat jihatidan yangilash vositasi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

J.H. Dunningning xalqaro ishlab chiqarish va transmilliy korporatsiyalar haqidagi ilmiy qarashlari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tashqi savdo faoliyatiga ta'sirini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi<sup>3</sup>. Uning OLI paradigmasiga ko'ra, transmilliy korporatsiyalar xorijiy bozorlarga chiqishda egalik ustunliklari, joylashuv ustunliklari va ichkilashtirish ustunliklariga tayanadi. Bu yondashuvda xorijiy investitsiyalar faqat kapital oqimi sifatida emas, balki texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, xalqaro marketing tarmoqlari, ishlab chiqarish standartlari va global qiymat zanjirlariga ulanish kanali sifatida baholanadi. Dunning fikricha, qabul qiluvchi mamlakat investitsiyalarni samarali jalb eta olishi uchun qulay institutsional muhit, infratuzilma, mehnat resurslari sifati, soliq va bojxona sharoitlari hamda bozor imkoniyatlari yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur. Shu sababli uning qarashlari eksport salohiyatini oshirishda xorijiy investitsiyalarning texnologik va institutsional ta'sirini chuqur baholash imkonini beradi.

P. Krugman, M. Obstfeld va M. Melitz xalqaro iqtisodiyot nazariyasida savdo, ishlab chiqarishning joylashuvi, firma samaradorligi va global bozorlar o'rtasidagi bog'liqlikni keng yoritgan<sup>4</sup>. Ularning yondashuvlarida tashqi savdo faqat mamlakatlar o'rtasidagi resurslar farqi bilan emas, balki miqyos samarasi, mahsulot differentsiatsiyasi, transport xarajatlari, bozor hajmi va firmalar unumdorligi bilan ham izohlanadi. Ayniqsa,

1 Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

2 Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.

3 Dunning J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – Wokingham: Addison-Wesley, 1993.

4 Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – Boston: Pearson, 2018.



M. Melitz tomonidan rivojlantirilgan firma darajasidagi savdo modeli eksport bozoriga faqat eng samarali va raqobatbardosh korxonalar chiqishini ko'rsatadi. Bu esa investitsiya samaradorligini baholashda korxonalarining texnologik darajasi, ishlab chiqarish unumdorligi, mahsulot sifati, sertifikatlash imkoniyatlari va tashqi bozor talablariga moslashish qobiliyatini hisobga olish zarurligini anglatadi. Krugman, Obstfeld va Melitz qarashlari eksport salohiyatini rivojlantirishda investitsiyalarni yuqori unumdor korxonalar, logistika infratuzilmasi va xalqaro qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv bilan bog'liq holda tahlil qilish muhimligini asoslaydi.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksportni kengaytirishning muhim omili sifatida ko'rsatiladi. Xorijiy investitsiyalar orqali yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, xalqaro standartlar, marketing tarmoqlari va global qiymat zanjirlariga kirish imkoniyatlari shakllanadi. Biroq investitsiyalar eksport o'sishiga avtomatik tarzda ta'sir etmaydi. Buning uchun mahalliy korxonalarining texnologiyalar va bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati, malakali kadrlar, standartlashtirish tizimi, raqobat muhiti va institutsional sharoitlar yetarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Bu jihat Porterning raqobat ustunliklari nazariyasi, Romerning endogen o'sish yondashuvi, Dunningning xalqaro ishlab chiqarish paradigmasi hamda Krugman, Obstfeld va Melitzning firma samaradorligi va xalqaro savdo haqidagi qarashlari bilan bevosita uyg'unlashadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda eksport salohiyatini oshirishda sanoatni modernizatsiya qilish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash, eksportni moliyalashtirish, erkin iqtisodiy zonalar, klasterlar va investitsiya loyihalari samaradorligini baholash masalalari alohida o'rin tutadi. Mavjud tadqiqotlar investitsiya resurslarining eksport salohiyatiga ta'sirini o'rganishda muhim ilmiy asos yaratgan bo'lib, ularni tarmoqlararo diversifikatsiya, hududiy ixtisoslashuv va moliyalashtirish manbalari uyg'unligi nuqtayi nazaridan yanada kengaytirish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni boyitishga qaratilgan.

Umuman olganda, M. Porterning raqobat ustunliklari nazariyasi eksport salohiyatini klasterlar, innovatsiyalar va tarmoq raqobatbardoshligi orqali tushuntirsa, P. Romerning endogen o'sish nazariyasi investitsiyalarning texnologik bilimlar va innovatsion salohiyatni shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydi. J.H. Dunning to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni global qiymat zanjirlari, boshqaruv tajribasi va xalqaro ishlab chiqarish tizimlariga ulanish omili sifatida talqin qiladi. P. Krugman, M. Obstfeld va M. Melitz esa eksport faoliyatida firmalar unumdorligi, miqyos samarasi va xalqaro bozorlarga chiqish xarajatlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu nazariy qarashlar eksport salohiyati va investitsiya samaradorligini o'zaro bog'liq, ko'p omilli hamda institutsional jihatdan murakkab jarayon sifatida tadqiq etish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, institutsional tahlil hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalarning ta'siri ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik modernizatsiya, mahsulot diversifikatsiyasi, logistika infratuzilmasi, eksportni moliyalashtirish va tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholandi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakunlari bo'yicha tashqi savdo va asosiy kapitalga investitsiyalar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlari, amaldagi milliy qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy yondashuvlardan foydalanildi. Konseptual tahlilda investitsiyalarning eksport salohiyatiga ta'siri «resurs – infratuzilma – texnologiya – raqobatbardosh mahsulot – tashqi bozor» zanjiri orqali izohlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport salohiyati milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlarda barqaror ishtirok etish, raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, eksport geografiasini kengaytirish hamda valyuta tushumlarini shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. Uning tarkibiga ishlab chiqarish salohiyati, investitsiya resurslari, texnologik daraja, kadrlar sifati, standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi, logistika infratuzilmasi hamda tashqi bozorlar bilan institutsional aloqalar kiradi. Shu bois eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanish deganda kapital qo'yilmalarni faqat hajm jihatidan ko'paytirish emas, balki ularni eksportga yo'naltirilgan, iqtisodiy natija beruvchi tarmoqlar va loyihalarga maqsadli joylashtirish tushuniladi.

Investitsiyalar eksport salohiyatiga bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, asosiy kapitalga investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi va eksport uchun zarur bo'lgan barqaror mahsulot taklifini ta'minlaydi. Ikkinchidan, texnologik investitsiyalar mahsulot sifati, standartlarga muvofiqlik va energiya samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, logistika va infratuzilmaga investitsiyalar tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarini pasaytiradi. To'rtinchidan, inson kapitali va innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Beshinchidan, moliyaviy

institutlar va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga investitsiyalar korxonalarining tashqi kontraktlarni bajarishdagi moliyaviy barqarorligini oshiradi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Ekspost salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning konseptual yo'nalishlari<sup>5</sup>

T/r	Konseptual yo'nalish	Investitsiya ta'siri	Ekspost natijasi
1	Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish	Asosiy kapitalni yangilash va modernizatsiya qilish	Ekspostga mo'ljallangan mahsulot taklifi barqarorlashadi
2	Texnologik modernizatsiya	Innovatsion uskunalar, raqamli texnologiyalar va R&D xarajatlari	Mahsulot sifati va xalqaro standartlarga muvofiqligi oshadi
3	Logistika va infratuzilma	Transport, ombor, bojxona hamda sertifikatlashtirish tizimlarini rivojlantirish	Tashqi bozorlarga chiqish xarajatlari pasayadi
4	Tarmoqlararo diversifikatsiya	Yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarga kapital yo'naltirish	Ekspost tarkibi xomashyo bog'liqligidan chiqadi
5	Institutsional-moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Kredit, kafolat, sug'urta va eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlari	Korxonalarining eksport shartnomalarini bajarish qobiliyati kuchayadi

Jadvalda keltirilgan konseptual yo'nalishlar eksport salohiyatini investitsiya siyosati bilan bog'lashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Agar investitsiyalar faqat umumiy kapital qo'yilmalar sifatida baholansa, ularning eksportga ta'siri aniq ko'rinmaydi. Shu sababli investitsiyalarning eksport natijasiga olib keluvchi funksional zanjirini ajratish talab etiladi. Masalan, ishlab chiqarish quvvatlariga yo'naltirilgan mablag'lar eksport hajmini oshirsa, texnologik modernizatsiya eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligi va narxdan tashqari ustunliklarini kuchaytiradi. Logistika investitsiyalar esa mahsulotlarni yetkazib berish muddati va xarajatlarini qisqartirib, eksport bozorlarida ishonchlilikni oshiradi.

O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalar dinamikasi muhim ahamiyatga ega. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga ko'pdir. Shu davrda asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar 33,5 mlrd AQSh dollari yoki 422,1 trln so'mni tashkil etgan. Mazkur investitsiyalar ishlab chiqarish sanoati, elektr energetikasi, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda eksport salohiyatini oshirish uchun resurs bazasini kengaytirmoqda.

Tashqi savdo bo'yicha 2025-yil yakunlari ham investitsiya va eksport o'rtasidagi bog'liqlikning dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 81,2 mlrd AQSh dollariga yetgan, eksport hajmi esa 33,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 24,0 foizga oshgan. Xizmatlar eksporti 9,76 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, jami eksportning 28,9 foiziga yetgan. Bu ko'rsatkichlar eksport salohiyatini oshirishda nafaqat sanoat mahsulotlari, balki transport, turizm, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari kabi investitsiya talab etuvchi xizmatlar sohasining ham ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Investitsiyalarning eksportga ta'siri ularning tarmoqlar kesimidagi samarali taqsimoti bilan chambarchas bog'liq. Xususan, qayta ishlash sanoati, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilikning yuqori qiymatli segmentlari, logistika, turizm va IT xizmatlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar eksport tarkibining diversifikatsiyalanishiga va raqobatbardoshligining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bois eksportga yo'naltirilgan investitsiya siyosatining ustuvor vazifasi kapital qo'yilmalarni eksportda yuqori samaradorlik va qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltirishdan iborat.

Investitsiya muhiti va eksport infratuzilmasi o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, qulay investitsiya muhiti xorijiy va mahalliy kapitalni jalb qilib, eksport uchun zarur ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bazasini shakllantiradi. Ikkinchi tomondan, rivojlangan eksport infratuzilmasi — transport koridorlari, logistika markazlari, bojxona rasmiylashtiruvchi, laboratoriya va sertifikatlashtirish tizimlari — investorlar uchun bozorga chiqish xarajatlarini kamaytiradi. Shu sababli eksport salohiyatini oshirish strategiyasida investitsiya muhiti va eksport infratuzilmasi yagona institutsional kompleks sifatida qaralishi zarur.

Ekspostga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholashda bir nechta ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga investitsiya birligiga to'g'ri keladigan eksport hajmi, eksport mahsulotlari tarkibida yuqori qo'shilgan qiymat ulushi, eksportchi korxonalar soni, eksport geografiasining kengayishi, xizmatlar eksporti ulushi, transport-logistika xarajatlarining pasayishi va valyuta tushumlarining barqarorligi kiradi. Bunday ko'rsatkichlar investitsiyalarning natijaviyligini faqat kapital o'zlashtirish darajasi bilan emas, balki tashqi bozorlardagi real iqtisodiy samara orqali ham baholash imkonini beradi (2-jadval).

5 Манба: муаллиф томонидан экспорт салоҳияти, инвестиция самарадорлиги ва институционал қўллаб-қувватлашга оид назарий ёндашувлар асосида тузилган..



## 2-jadval

Eksportga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari<sup>6</sup>

T/r	Ko'rsatkich	Iqtisodiy mazmuni	Baholash ahamiyati
1	Investitsiya birligiga to'g'ri keladigan eksport	Kapital qo'yilmalarning tashqi bozordagi natijasi	Investitsiya qaytimini eksport natijasi bilan bog'laydi
2	Yuqori qo'shilgan qiymat ulushi	Tayyor va texnologik mahsulotlar hissasi	Eksportning tarkibiy sifatini baholaydi
3	Eksportchi korxonalar soni	Tashqi bozorlarda faol subyektlar qamrovi	Institutsional va hududiy eksport bazasini ko'rsatadi
4	Eksport geografiyasi	Mahsulot va xizmatlar yetkazib beriladigan bozorlar soni	Tashqi talab risklarini diversifikatsiya qiladi
5	Logistika xarajatlari ulushi	Tovarni tashqi bozorga yetkazish xarajati	Infratuzilmaviy samaradorlikni aniqlaydi

Konseptual jihatdan eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarni boshqarishda to'rt bosqichli yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda eksport salohiyatiga ega tarmoqlar aniqlanadi va ularning resurs, texnologiya, infratuzilma hamda bozor imkoniyatlari baholanadi. Ikkinchi bosqichda investitsiya resurslari eksport natijasi yuqori bo'lgan tarmoqlar va hududlarga ustuvor ravishda yo'naltiriladi. Uchinchi bosqichda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari — kreditlar, kafolatlar, sug'urta, subsidiyalar, infratuzilma loyihalari va sertifikatlashtirish xizmatlari — investitsiya loyihalari bilan uyg'unlashtiriladi. To'rtinchi bosqichda natijaviy monitoring va KPI tizimi orqali investitsiyalarning eksport hajmi, mahsulot sifati, bandlik hamda valyuta tushumlariga ta'siri baholanadi.

Bunday model investitsiya siyosatini passiv kapital jalb qilish jarayoni emas, balki eksport natijasiga yo'naltirilgan faol boshqaruv mexanizmi sifatida shakllantiradi. Unda davlatning vazifasi investorlarga umumiy imtiyozlar berish bilan cheklanmaydi; davlat eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish, standartlashtirish infratuzilmasini rivojlantirish, logistika xarajatlarini pasaytirish va korxonalarini tashqi bozor talablariga moslashtirishda institutsional muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, eksport salohiyatini oshirishda investitsiya siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: yuqori qo'shilgan qiymatli eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishga investitsiyalarni ustuvor ravishda yo'naltirish; hududlarning nisbiy ustunliklari asosida eksportga ixtisoslashgan investitsiya loyihalarini shakllantirish; maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini eksport natijalari bilan bog'langan KPI tizimi asosida baholash; eksport infratuzilmasiga davlat-xususiy sheriklik asosida kapital jalb qilish; eksportchi korxonalar uchun uzoq muddatli moliyalashtirish va kafolat mexanizmlarini kengaytirish; innovatsiyalar, standartlashtirish va brending xarajatlarini investitsiya siyosati tarkibiga kiritish.

Eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning muhim jihatlaridan biri hududiy yondashuvdir. Har bir hududning tabiiy resurslari, sanoat an'analari, mehnat resurslari, transport imkoniyatlari va tashqi bozorlarga yaqinligi turlicha bo'lgani sababli investitsiya siyosatini yagona qolip asosida amalga oshirish kutilgan samarani bermaydi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyati yuqori bo'lgan hududlarda agrosanoat eksportiga investitsiyalarni yo'naltirish, transport uzellariga yaqin hududlarda logistika va qayta taqsimlash markazlarini rivojlantirish, sanoatlashgan hududlarda esa texnologik modernizatsiya hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir.

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari ham eksport salohiyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarining o'z mablag'lari ichki barqarorlikni ta'minlansa, bank kreditlari aylanma va asosiy kapitalni tezroq shakllantirish imkonini beradi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar texnologiyalar va tashqi bozorlarga chiqish kanallarini olib kiradi. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari infratuzilma va yirik modernizatsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Davlat kafolatlari va subsidiyalari esa yuqori riskli, ammo eksport natijasi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish uchun rag'bat yaratadi (3-jadval).

6 Манба: муаллиф ишланмаси.

## 3-jadval

Eksportga yo'naltirilgan investitsiya siyosatining strategik yo'nalishlari<sup>7</sup>

T/r	Strategik yo'nalish	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan natija
1	Yuqori qo'shilgan qiymatli eksport	Qayta ishlash sanoati, brendlash va standartlashtirishga investitsiyalar	Eksport tarkibi sifat jihatidan yaxshilanadi
2	Hududiy eksport ixtisoslashuvi	Hududlarning nisbiy ustunliklari asosida investitsiya loyihalari	Mintaqaviy eksport salohiyati faollashadi
3	Logistika infratuzilmasi	Transport koridorlari, omborlar, bojxona va sertifikatlashtirish markazlari	Eksport xarajatlari va yetkazib berish muddati qisqaradi
4	Moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi	Bank kreditlari, XMI mablag'lari, TXI, kafolat va sug'urta mexanizmlari	Investitsiya loyihalarining barqarorligi oshadi
5	Natijaviy monitoring	KPI, eksport qaytimi va investitsiya samaradorligi indikatorlari	Davlat qo'llab-quvvatlashining maqsadliligi ta'minlanadi

Mazkur strategik yo'nalishlar eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirishda o'zaro to'ldiruvchi vazifani bajaradi. Yuqori qo'shilgan qiymatli eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish investitsiyalar sifatiga, hududiy ixtisoslashuv esa investitsiyalarning joylashuviga bog'liq. Logistika infratuzilmasi investitsiya natijalarini tashqi bozorlarga chiqarish imkonini beradi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi risklarni pasaytiradi. Natijaviy monitoring esa davlat va xususiy sektor resurslarining maqsadli ishlatilishini ta'minlaydi.

Ekonometrik jihatdan investitsiyalar va eksport o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda lagli ta'sirni inobatga olish zarur. Chunki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar eksport hajmiga darhol emas, balki loyiha ishga tushirilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi, sertifikatlar olinishi va tashqi bozorlarda shartnomalar tuzilishi bosqichlaridan keyin ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarni baholashda bir yillik yoki ikki yillik kechikish ta'sirini hisobga olish, tarmoqlar kesimida elastiklik koeffitsiyentlarini aniqlash va investitsiyalarning eksport multiplikatorini hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanish uchun investitsiya samaradorligini eksport natijalari bilan uyg'un holda baholash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunda har bir yirik investitsiya loyihasi uchun eksportga ta'sir pasportini shakllantirish, unda mahsulot turi, tashqi bozorlar, eksport ulushi, valyuta tushumi, mahalliyashtirish darajasi, ish o'rinlari va byudjet tushumlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarni belgilash investitsiya natijadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalarning institutsional samaradorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar uchun yer ajratish, infratuzilmaga ulanish, bojxona va sertifikatlashtirish jarayonlari, valyuta tushumlarini boshqarish, transport tariflari va soliq rejimlarining prognozlanuvchanligi investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi hamda eksport natijalarining yanada yuksalishiga qulay sharoit yaratadi. Shu sababli eksportga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini institutsional barqarorlik, raqamlashtirilgan xizmatlar va shaffof monitoring tizimi orqali qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Amaliy jihatdan eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanish davlat, biznes va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashni talab qiladi. Davlat strategik yo'nalishlarni belgilaydi va infratuzilmaviy sharoitlarni yaratadi, biznes eksportga mos mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaradi, banklar hamda moliyaviy institutlar investitsiya jarayonlarini moliyalashtiradi, ilmiy-ta'lim muassasalari esa malakali kadrlar, ilg'or texnologiyalar va innovatsion yechimlar bilan ta'minlaydi. Ushbu to'rt tomonlama hamkorlik eksport salohiyatining barqaror o'sishi va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, tashqi savdo barqarorligi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Investitsiyalar eksportga samarali ta'sir ko'rsatishi uchun ular ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik modernizatsiya, logistika infratuzilmasi, standartlashtirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda boshqarilishi lozim.

Birinchiidan, eksportga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini tarmoqlar kesimida ustuvorlashtirish zarur. Bunda qayta ishlash sanoati, elektrotexnika, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilikning yuqori qiymatli

7 Манба: муаллиф томонидан диссертация мундарижасида белгиланган назарий ва стратегик йўналишлар асосида тузилган.



segmentlari, transport-logistika, turizm va raqamli xizmatlar eksport salohiyati yuqori bo'lgan sohalar sifatida alohida qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Ikkinchidan, investitsiya loyihalarining eksport natijadorligini baholash uchun maxsus indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tizimda investitsiya birligiga to'g'ri keladigan eksport hajmi, eksport geografiyasi, valyuta tushumlari, mahalliyashtirish darajasi, yuqori qo'shilgan qiymat ulushi va yangi ish o'rinlari kabi ko'rsatkichlar qamrab olinishi kerak.

Uchinchidan, hududlarning nisbiy ustunliklari asosida eksportga ixtisoslashgan investitsiya loyihalarini shakllantirish zarur. Bu hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va eksport geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, eksport infratuzilmasiga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim. Transport koridorlari, logistika markazlari, xalqaro standartlarga mos laboratoriyalar, sertifikatlashtirish organlari va raqamli bojxona platformalarini rivojlantirish eksport xarajatlarini kamaytirib, tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish ishonchligini oshiradi.

Beshinchidan, eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur. Bank kreditlari, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, davlat kafolatlari, eksport sug'urtasi va xususiy kapital vositalarini uyg'unlashtirish investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Eksport salohiyatini oshirishda investitsiyalardan samarali foydalanishning konseptual modeli investitsiya siyosatini eksport natijalariga yo'naltirilgan, tarmoqlar va hududlar bo'yicha maqsadli, institutsional jihatdan muvofiqlashtirilgan hamda monitoring asosida baholanadigan mexanizm sifatida shakllantirishni taqozo etadi. Bunday yondashuv O'zbekistonda eksport hajmini oshirish, eksportchi korxonalar sonini ko'paytirish, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi: 2025-yil yanvar-dekabr bo'yicha press-reliz. – Toshkent, 2026. – URL: <https://stat.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2025-yil yanvar-dekabr bo'yicha press-reliz. – Toshkent, 2026. – URL: <https://stat.uz>.
3. Porter M. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.
4. Romer P. M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
5. Dunning J. H. *Multinational Enterprises and the Global Economy*. – Wokingham: Addison-Wesley, 1993.
6. UNCTAD. *World Investment Report: Investment and Sustainable Development*. – Geneva: United Nations, 2024.
7. World Bank. *Trade and Competitiveness Global Practice: Export Competitiveness and Diversification*. – Washington, DC: World Bank, 2023.
8. OECD. *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan*. – Paris: OECD Publishing, 2025.
9. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. *International Economics: Theory and Policy*. – Boston: Pearson, 2018.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)